



INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NOMUTAXASSIS TALABALAR UCHUN INFORMATIKA FANINI O’QITISH METODIKASI

Muallif: Abduraxmanova Dilbar Xudaybergenovna ¹

Affilyatsiya: mustaqil tadqiqotchi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504503>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nomutaxassis talabalarning informatika fani tayyorgarligini amalga oshirishning axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari, o’qitish usullari, mexanizmalari va shart-sharoitlari haqida ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: axborot, ta’lim, texnologiya, innovatsiya, informatika, fan, o’qitish, mexanizm, shart-sharait.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida informatika fanini o’qitish siyosatining asosiy vazifalaridan biri – bu ta’limning zamonaviy sifatini, uning asoslilikini saqlab qolish va shaxsning dolzarb va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiqligi asosida ta’minlashdir. Shuningdek, zamonaviy ta’limga bo’lgan muhim talab nafaqat bo’lajak o’qituvchilarga informatika fani doirasida ilmiy bilimlar tizimini taqdim etish, balki ularga ta’lim faoliyatining samarali usullari va mustaqil ravishda egallash, o’zlari egallagan kasbiy bazaviy (tayanch) bilimlarni egallash va kasbidagi muammolarni hal qilishda amalda qo’llash, o’zgartirish va rivojlantirish ko’nikmalarini o’rgatishdir. Ta’lim sohasidagi bazaviy (tayanch) bilimlarni o’zlashtirish jarayonida olingan ma’lumotlar asosida yangi bilimlar asosida takomillashtirib borish amaliyotga keng qo’llanilmoqda.

Dunyoning bir qator oliy ta’lim tizimida informatika fanini o’qitishning individual uslubiy jihatlari, tarkibiy qismlari va tashkiliy shakllarini ochib berish yuzasidan qator ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Ushbu pedagogik tadqiqotlarda, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida nomutaxassis talabalarga informatika fanini o’qitish asosida bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda nomutaxassis talabalarga informatika fani imkoniyatlarini keng ochib berish, bo’lajak o’qituvchilarning o’quv va kognitiv faoliyatini faollashtirish uchun sharoit yaratishga imkon beradigan yangi yondashuvlar zarurligini e’tiborga olgan holda, ularining bazaviy (tayanch) bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishga, balki ularning ushbu bilimlarning ahamiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari to’g’risida xabardorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari muntazam bajarilmoqda.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimi bakalavriat ta’lim yo’nalishlari pedagogika sohasida informatika fanini o’qitish natijalariga ko’ra, yangilanish tezligi unchalik yuqori bo’lmagan va bunday marketing xususiyatlari bilan ajralib turadigan fan sohasidan bunday nazariy bilimlarni olish bilan bog’liq ehtiyojlarning o’sish tendensiyasi

mavjudligi, saqlanishi, ko'p qirralilik hamda bilim olish, uni qabul qilish, amaliy faoliyatda qo'llash samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan ilmiy tadqiqot ishlar bajarilmoqda. Bu xususiyatlarning barchasi informatika fanidan bazaviy (tayanch) bilimlarga tegishli bo'lib, o'qitish mazmunida informatika fani asoslari bo'limlarining ustunligi bilan ta'minlanadigan qator ilmiy loyihalarda o'z aksini topmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish, innovatsion texnologiyalari vositasida informatika fanini o'qitish samaradorligini oshirish mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar A.A.Abduqodirov, D.B.Abduraximov, M.Aripov, U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, I.Isoqov, M.X.Lutfillayev, M.E.Mamarajabov, D.N.Mamatov, N.I.Taylaqov, D.E.Toshtemirov, O.X.Turakulov, S.Q.Tursunov, M.R.Fayziyeva, N.S.Xaytullayeva, Sh.S.Sharipov, T.T.Shoymardonov, O'.Sultonova, N.Qayumova, N.Qarlibaeva U.Yuldashev, S.I.Qulmamatov, A.G'.Hayitov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, MDH davlatlarida A.Andreev, K.Arkipov, A.Ershov, M.P.Lapchik, E.I.Mashbits, A.V.Mogilev, E.Polat, I.V.Robert va boshqalar tomonidan ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini yaratish va ulardan foydalanishning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Xorijda E.A.Edmonds, N.Henze, K.Maycock, A.Lippman, M.Sigala, L.Thomson, V.Sirohi kabilarning tadqiqotlarida ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va metodik masalalari bayon qilingan.

Innovatsion ta'lim texnologiyalar asosida nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bular: pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish asosida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida nomutaxassis talabalarga informatika fani o'qitish metod va usullarini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash va nazariy jihatdan asoslash; nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o'qitish metodikasini o'qitish jarayonining samarali-baholovchi modeli motivatsion-qiymat, intellektual-kognitiv, axborot - faoliyat, baholash-tuzatish komponentlarini o'z ichiga olgan bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini rivojlantirish asosida aniqlash; innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida nomutaxassis talabalarga informatika fanini o'qitish metodikasi bo'yicha bazaviy (tayanch) bilimlarni o'zlashtirish mezonlari va darajalarini o'z ichiga olgan informatika fani nomutaxassis talabalarni o'qitish jarayonining samarali-baholovchi modelini ishlab chiqish; informatika fani imkoniyatlaridan nomutaxassis talabalar o'zlarining bazaviy (tayanch) kasbiy faoliyatlarida qo'llash bo'yicha fan doirasidagi bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirishni tajriba-tajriba ishlari asoslashda samaradorlik ko'rsatgichlarini aniqlashdan iborat bo'lidi.

Xulosa sifatida aytish joizki, informatika fanini o'qitishda ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, falsafiy, psixologik, pedagogik, informatika, axborot va kompyuter texnologiyalari sohalariga oid innovatsion texnologiyalar asosida nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish usuli, omillari, nazariy asoslari, tamoyillari, mohiyati va funksiyalari tarixiy-nazariy hamda metodik tahlil qilinadi.

Nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, oliy ta'lim tizimida nomutaxassis talabalarga informatika fanini o'qitish usullarining talaba shaxsiga yo'naltirilgan tizimli o'zgarmas bloklarining nazariy modelini yaratishni ta'minlaydigan ilmiy apparat ishlab chiqildi va ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Karlıbaeva G.E. bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped. fan. dok. ... diss. –T., 2018. -248 b.;

Выготский Л.С. Психология развития человека / Сост. А.А. Леонтев. М.: Смысл; Эксмо, 2004. 1136 с.

Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakillantirish. Toshkent. Fan. 2004.

Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondoshuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped. fan. dok. ... diss. –T., 2019. -237 b.;

Mamarajabov M. "Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish" . Ped. fan. dok. ... diss. –T., 2023. -258 b.

